



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No5



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, may.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhriddinov Zafarjon Fakhriddin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

SANOAT KORXONALARINING IQTISODIY SALOHİYATINI OSHIRISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING O'RNI	18
O'rinov Akmaljon Ahmadjonovich Siddiqov Javlonbek Sodiqjon o'g'li	
XORAZM VILOYATIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING JORIY HOLATI VA RIVOJLANISH OMILLARI TAHLILI	22
Ro'zmatova Farahongiz Bekmurotovna	
ENERGETIKA INFRATUZILMASINING HUDUDIY RIVOJLANISH VA IJTIMOY TENGLIKKA TA'SIRI.....	27
Babajanova Dilfuza Abdurasulovna	
HUDUDLARDA LOKAL TURIZM XIZMATLARINING TARKIBI VA RIVOJLANISH DINAMIKASI TAHLILI (ANDIJON VILOYATI MISOLIDA)	32
Xasanova Mavjuda Ma'mirjonovna	
TURIZM MAVSUMIYLIGI OMILLARINING KOMPLEKS TAHLILI: TASNIFLASHNING KONSEPTUAL VA INTEGRATSION MEXANIZMLARI.....	41
Barotov Umidjon Mahmud o'g'li	
BOSHQARISH SIFATI MOHIYATI VA UNI OSHIRISHNING OBYEKTIV ZARURIYATI.....	48
Shoyev Davronbek Axmadjonovich Abdullayeva Gulsanam	
ENGLISH LOANWORDS IN RUSSIAN AND UZBEK: TERMINOLOGICAL ADAPTATION WITHIN A COMPARATIVE LINGUISTICS FRAMEWORK	53
Kambarova Liliya Ruslanovna	
РОЛЬ ГОСУДАРСТВА В ФОРМИРОВАНИИ ИННОВАЦИОННОЙ ЭКОНОМИКИ И ПРИВЛЕЧЕНИИ ИНВЕСТИЦИЙ	56
Алибекова Саодат Лапасовна	
EKSPORTGA YO'NALTIRILGAN SANOAT KORXONALARIDA MARKETING XIZMATINI TASHKIL ETISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	61
Usmonova Dilfuza Iloxomovna	
O'ZBEKISTON INDIVIDUAL SPORTCHILARINI TAYYORLASH TIZIMI BOSHQARUVIGA RAQAMLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARI JORIY ETISHNING SAMARALI USULLARI.....	66
Junaydullayev Mels Asliddin o'g'li	
KORXONA IQTISODIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA ERP TIZIMLARINING SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	72
Xaydarova Kamola Axinjanovna Berdiqulov Suhrob Berdiqulov o'g'li	
KORPORATIV BIRLASHISHLAR VA QO'SHIB OLISHLAR: NAZARIY ASOSLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	78
Latipova Shaxnoza Maxmudovna Xolmurodova Sevara Asqarovna	
DAVLAT BUDJETI KAPITAL XARAJATLARIDA RISKLARNI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH	84
Guzal Navruzova	
KORXONALARNING INNOVATSION RIVOJLANISHINI TA'MINLASHDA INVESTITSIYA VA MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARI	88
Mamayeva Diyora Kurbanbayevna	
MARKAZIY VA JANUBIY O'ZBEKISTON MINTAQALARI SANOATIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK KO'RSATGICHLARI HOLATI	94
Uralov Eliboy Omonovich	



O'ZBEKISTONDA YOSHLAR TURIZMINI RIVOJLANTIRISHDA XALQARO TAJRIBALARNI QO'LLASH.....	100
Dilfuza Xamzayeva Xurshid Xurramov	
TO'QIMACHILIK SANOATINI RIVOJLANTIRISHDA STRATEGIK YONDASHUVLARDAN FOYDALANISH	106
Otaxonova Roza Boboxon qizi	
APPLICATIONS OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN THE DEVELOPMENT OF BANKING SERVICES.....	111
Mamutova Aygul Kalmurzaevna, Yaxyayeva Inobat Karimovna	
INVESTITSIYANING EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISHDAGI ASOSIY IMKONIYATLARI	118
Rapikov Toxirjon Yuldashbayevich	
XIZMATLAR SOHASIDA RAQAMLI MARKETINGDAN FOYDALANISHNING METODOLOGIK ASOSLARI	122
Yahyoxonov Niyozxo'ja Bahroil o'g'li	
ALOQA KORXONALARI MOLIYAVIY BARQARORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNING EKONOMETRIK TAHLILI VA PROGNOZLARI.....	128
Ismailov Xusanboy Mahammadqosim o'g'li	
YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA DAVLAT IQTISODIY BOSHQARUVINING ROLI VA AHAMIYATI	133
Xatamova Gavhar Kiyamovna	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA SUV TEJOVCHI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNI DAVLAT TOMONIDAN MOLIYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHNI TAKOMILLASHTIRISH	138
Seitnazarov Baxadir Muratbaevich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING TASHQI SAVDO FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	144
Ismailov Erkin Faxretdinovich	
THE ROLE OF INNOVATIVE MARKETING STRATEGIES IN THE GLOBAL BUSINESS ENVIRONMENT	148
Aziz Kurbanovich Abdullaev, Nigora Fayzulla kizi Sayfullaeva, Maftuna Rustambek kizi Khojiakbarova	
AGROKLASTER – AGRAR SOHANING RIVOJLANISH NUQTASI	154
Boltayev Nazarbek Narzullayevich	
RAQAMLI BANKLAR RESURS BAZASINI OPTIMALLASHTIRISH IMKONIYATLARI.....	159
Jumayev Muzaffar Mahmud o'g'li	
O'ZBEKISTON DON SANOATIDA RISKLARNI BOSHQARISH VA UNING STRATEGIYASINI RIVOJLANTIRISH.....	164
Kurbanova Nigora Abduraxmanovna	
RESPUBLIKAMIZDA AGROLOGISTIKA XIZMATLARI VA UNING SAMARADORLIGI.....	169
Azizova Dilafuz Habibullayevna	
INVESTITSIYA LOYIHALARINI KOMPLEKS EKSPERTIZA QILISH VA BAHOLASHDAGI MUAMMOLAR.....	172
Ulashev Jahongir Xushmuradovich, Baxriddinova Yulduz Baxriddin qizi	



INVESTITSIYA LOYIHALARINI KOMPLEKS EKSPERTIZA QILISH VA BAHOLASHDAGI MUAMMOLAR

Ulashev Jahongir Xushmuradovich

Osiyo texnologiyalar universiteti,
Iqtisodiyot yo'nalishi 2-bosqich magistranti

Baxriddinova Yulduz Baxriddin qizi

Osiyo texnologiyalar universiteti,
Iqtisodiyot yo'nalishi 2-bosqich magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi misolida investitsiya loyihalarini kompleks ekspertiza qilish va baholash jarayonidagi asosiy muammolar ilmiy-tadqiqot nuqtai nazaridan tahlil qilingan. Tadqiqotda 2019–2024-yillar davomidagi statistik ma'lumotlar asosida mamlakatda investitsiya faolligining o'sish dinamikasi yoritilgan.

Shuningdek, so'nggi yillardagi mahalliy va xalqaro ilmiy adabiyotlar o'rganilib, UNIDO, Jahon banki hamda boshqa xalqaro tashkilotlarning metodologik yondashuvlari bilan qiyosiy tahlil amalga oshirilgan.

Tadqiqot yakunida yagona milliy metodologiyani ishlab chiqish, ekspertlar malakasini oshirish, ochiq axborot platformasini yaratish, Monte-Karlo simulyatsiyasini joriy etish, ekologik va ijtimoiy ekspertiza tizimini rivojlantirish hamda monitoring mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: investitsiya loyihasi, kompleks ekspertiza, loyihani baholash, NPV, IRR, xavf-xatar tahlili, metodologiya, UNIDO, ekologik ekspertiza, investitsiya samaradorligi, monitoring, O'zbekiston iqtisodiyoti, xorijiy investitsiyalar, sertifikatlash, Monte-Karlo simulyatsiyasi.

Abstract. This paper analyzes the key challenges of comprehensive expertise and evaluation of investment projects in the Republic of Uzbekistan from a research perspective. Based on statistical data for 2019–2024, the study outlines the dynamics of investment activity growth in the country.

In addition, the study reviews recent domestic and international literature and provides a comparative analysis of methodological approaches developed by UNIDO, Jahon banki, and other international organizations.

As a result, practical recommendations are proposed, including the development of a unified national methodology, enhancement of expert qualifications, creation of an open information platform, implementation of Monte Carlo simulation, strengthening of environmental and social expertise, and improvement of monitoring systems.

Key words: investment project, comprehensive expertise, project evaluation, NPV, IRR, risk analysis, methodology, UNIDO, environmental expertise, investment efficiency, monitoring, Uzbekistan economy, foreign investments, certification, Monte Carlo simulation.

Аннотация. В данной статье на примере Республики Узбекистан с научно-исследовательской точки зрения проанализированы основные проблемы комплексной экспертизы и оценки инвестиционных проектов. На основе статистических данных за 2019–2024 годы показана динамика роста инвестиционной активности в стране.

Кроме того, проведён анализ современных отечественных и зарубежных научных исследований, а также сравнительный обзор методологических подходов UNIDO, Jahon banki и других международных организаций.

В результате исследования разработаны практические рекомендации, направленные на формирование единой национальной методологии, повышение квалификации экспертов, создание открытой информационной платформы, внедрение метода Монте-Карло, развитие экологической и социальной экспертизы, а также совершенствование системы мониторинга.

Ключевые слова: инвестиционный проект, комплексная экспертиза, оценка проекта, NPV, IRR, анализ рисков, методология, UNIDO, экологическая экспертиза, инвестиционная эффективность, мониторинг, экономика Узбекистана, иностранные инвестиции, сертификация, метод Монте-Карло.



KIRISH

Zamonaviy iqtisodiyotda investitsiya faoliyati milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Jahon amaliyotida investitsiya loyihalarini amalga oshirish jarayoni ko'pincha katta moliyaviy xavflar va noaniqliklar bilan bog'liq bo'lgani sababli, ularni ilmiy asoslangan holda ekspertiza qilish va baholash zarurati tobora ortib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy islohotlarning izchil davom etishi hamda xorijiy investitsiyalarni jalb etish bo'yicha davlat siyosatining faollashuvi investitsiya loyihalarini baholash mexanizmlarini takomillashtirish masalasining dolzarbligini yanada oshirmoqda.

Investitsiya loyihalarini kompleks ekspertiza qilish — bu loyihaning texnik, iqtisodiy, moliyaviy, ekologik va ijtimoiy jihatlarini har tomonlama baholash jarayoni bo'lib, uning asoslanganligi, amalga oshirilish imkoniyatlari va kutilayotgan samaradorligini aniqlashni o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, mamlakatimiz amaliyotida ushbu jarayonda metodologik, institutsional va axborot-tahliliy jihatlarini takomillashtirish zarurati kuzatilmoqda, bu esa investitsiya qarorlarining sifatini oshirish uchun muhim hisoblanadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi — O'zbekiston misolida investitsiya loyihalarini kompleks ekspertiza qilish va baholash jarayonining asosiy jihatlarini tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash hamda ularni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari quyidagilarni o'z ichiga oladi: investitsiya loyihalarini ekspertiza qilish va baholashning nazariy-metodologik asoslarini o'rganish; mavjud ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish; O'zbekistonda investitsiya loyihalarini baholash jarayonini statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilish; aniqlangan jihatlarini takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Investitsiya loyihalarini baholash muammolari bo'yicha so'nggi yillarda bir qator muhim ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Quyida 2022-yildan keyingi asosiy manbalar tahlili keltiriladi.

Birinchiidan, J.R. Hoshimov (2022) o'zining dissertatsiya tadqiqotida xorijiy investitsiyalarni jalb etish jarayonidagi institutsional omillarni batafsil o'rganib, investitsiya loyihalarini baholashning milliy modelini shakllantirish zarurligini asoslab bergan. Muallifning ta'kidlashicha, O'zbekistondagi investitsiya ekspertizasi tizimi hali ham xalqaro andozalarni yanada chuqurroq joriy etish bosqichida bo'lib, ayrim hollarda baholash jarayonini yanada takomillashtirish imkoniyatlari mavjud.

Ikkinchiidan, M. Toshmatov va B. Ismoilov (2023) investitsiya loyihalarining iqtisodiy samaradorligini baholashdagi metodologik jihatlarini tahlil qilgan. Ular Markaziy Osiyo mamlakatlari tajribasi asosida an'anaviy diskontlash usullarining inflyatsiya va valyuta xavflarini to'liq aks ettirishini yanada rivojlantirish zarurligini ko'rsatadilar. Mualliflar xavf omillarini kompleks hisobga oluvchi integrallashgan baholash modellarini qo'llash maqsadga muvofiqligini ta'kidlaydilar.

Uchinchiidan, Sh.A. Abdullayeva (2023) kichik va o'rta investitsiya loyihalarini moliyalashtirish jarayonini tadqiq etib, ekspertiza metodologiyasini yanada standartlashtirish zarurligini muhim yo'nalish sifatida belgilagan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, ayrim hollarda bir xil sohaga oid loyihalar turli mezonlar asosida baholanmoqda, bu esa qarorlar qabul qilish jarayonini yanada uyg'unlashtirish zaruratini yuzaga keltiradi.

To'rtinchiidan, N.K. Yusupov (2024) davlat investitsiya loyihalarini baholash tizimini rivojlantirishga bag'ishlangan tadqiqotida raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni ekspertiza jarayoniga joriy etish imkoniyatlarini o'rganadi. Muallifning xulosasiga ko'ra, axborot bazasini kengaytirish va ekspertiza jarayonining shaffofligini oshirish investitsiya loyihalarini yanada obyektiv baholashga xizmat qiladi.

Beshinchiidan, A. Razzaqov (2022) O'zbekistonda maxsus iqtisodiy zonalardagi investitsiya loyihalarini baholash amaliyotini tahlil qilib, kompleks yondashuvni kuchaytirish, xususan, ekologik va ijtimoiy omillarni yanada chuqurroq hisobga olish zarurligini ta'kidlaydi. Muallifning fikricha, moliyaviy ko'rsatkichlar bilan bir qatorda loyihalarning keng ijtimoiy-iqtisodiy ta'sirini baholash ham muhim ahamiyat kasb etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ilmiy ishda abstrakt-mantiqiy fikrlash, umumlashtirish, guruhlash, induksiya va deduksiya, tahlil hamda sintez kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

Iqtisodiy adabiyotlarda investitsiya loyahasini baholash (investment project appraisal) tushunchasi turlicha talqin etiladi. Keng ma'noda u loyihaning moliyaviy samaradorligi va amalga oshirilish imkoniyatlarini aniqlashga qaratilgan kompleks jarayon sifatida izohlanadi. Tor ma'noda esa mazkur tushuncha loyihaning sof joriy qiymati (NPV), ichki daromadlilik normasi (IRR), investitsiyalarning qaytish muddati (PBP) kabi miqdoriy ko'rsatkichlar asosidagi moliyaviy tahlil bilan bog'liqdir.



TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston iqtisodiyotida investitsiya faolligi so'nggi yillarda sezilarli o'sish dinamikasini namoyon etmoqda. Shu bilan birga, investitsiya hajmining ortishi bilan bir qatorda loyihalar sifatini oshirish va ularni baholash jarayonining samaradorligini yanada takomillashtirish zarurati yuzaga kelmoqda (1-jadval).

1-jadval. O'zbekistonda investitsiyalar dinamikasi (2019–2024-yillar)¹

Yil	Jami investitsiyalar (mlrd so'm)	YalMga nisbatan (%)	Xorijiy investitsiyalar (mlrd so'm)	Tasdiqlangan loyihalar (dona)
2019	149 200	28,4	42 600	1 240
2020	157 300	29,1	39 800	1 180
2021	189 600	31,2	51 400	1 560
2022	234 700	32,8	68 200	1 870
2023	278 500	33,6	79 500	2 140
2024	312 800	34,1	91 300	2 380

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 2019–2024-yillar davomida O'zbekistonda jami investitsiyalar hajmi 149 200 mlrd so'mdan 312 800 mlrd so'mga, ya'ni qariyb 2,1 baravarga oshgan. Yalpi ichki mahsulotga (YalM) nisbatan investitsiyalar ulushi ham 28,4 foizdan 34,1 foizga ko'tarilgan. Xorijiy investitsiyalar hajmi esa 42 600 mlrd so'mdan 91 300 mlrd so'mga, ya'ni taxminan 2,1 baravarga ortgan.

Shu bilan birga, tasdiqlangan investitsiya loyihalari soni 2019-yildagi 1 240 donadan 2024-yilda 2 380 donaga yetib, qariyb 1,9 baravarga ko'paygan. Mazkur o'sish asosan miqdoriy ko'rsatkichlarda namoyon bo'lib, sifat jihatidan baholash jarayonini yanada takomillashtirish zarurati saqlanib qolmoqda.

Birinchi yo'nalish — metodologik yondashuvni takomillashtirish zarurati. Hozirgi amaliyotda investitsiya loyihalarini ekspertiza qilish va baholash bo'yicha yagona milliy metodologiyani yanada tizimli shakllantirish ehtiyoji mavjud. Turli idoralar — masalan, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi hamda maxsus iqtisodiy zonalar boshqaruv organlari — loyihalarni turli mezonlar asosida baholamoqda. Bu esa bir xil tur va hajmdagi loyihalarni o'zaro qiyoslash imkoniyatlarini cheklaydi.

Ikkinchi yo'nalish — malakali ekspertlar salohiyatini rivojlantirish. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2023-yilda mamlakat bo'yicha investitsiya loyihalarini baholash sohasida faoliyat yuritayotgan sertifikatlangan mutaxassislar soni 400 nafardan oshmagan. Bu ko'rsatkich yiliga 2000 dan ortiq investitsiya loyihasi chuqur va sifatli ekspertiza qilish uchun yetarli darajada emasligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, ekspertlarning xalqaro standartlar — FIDIC, PMI, IPMA — bo'yicha bilim va ko'nikmalarini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Uchinchi yo'nalish — axborot ta'minotini kengaytirish va ochiqlikni oshirish. Loyihalarni baholash uchun zarur bo'lgan bozor ma'lumotlari, sanoat statistikasi va taqqoslanadigan loyihalar bo'yicha axborotlarni kengaytirish muhimdir. 2024-yil ma'lumotlariga ko'ra, baholash natijalarining taxminan 34 foizi ommaviy hisobotlar orqali e'lon qilinmoqda, bu esa ochiqlik darajasini yanada oshirish imkoniyatlari mavjudligini ko'rsatadi.

To'rtinchi yo'nalish — xavf-xatarlarni baholash usullarini rivojlantirish. Amaliyotda investitsiya loyihalarini baholashda asosan deterministik yondashuv qo'llanilmoqda, ya'ni asosiy ssenariy tahliliga tayaniladi. Biroq loyihalarning murakkabligi va noaniqlik darajasini inobatga olgan holda Monte-Karlo simulyatsiyasi, sezuvchanlik tahlili kabi zamonaviy stoxastik metodlarni kengroq joriy etish maqsadga muvofiqdir. 2022-yilgi kuzatuvlarga ko'ra, davlat ishtirokidagi yirik investitsiya loyihalarining qariyb 18 foizida to'liq xavf-xatar tahlili amalga oshirilgan.

Beshinchi yo'nalish — ekologik va ijtimoiy omillarni chuqurroq hisobga olish. Investitsiya loyihalarini baholash jarayonida ekologik ta'sir va ijtimoiy omillarni kompleks yondashuv asosida hisobga olish zarur. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, ayrim hollarda moliyaviy ko'rsatkichlarga ustuvor e'tibor qaratilib, loyihalarning kengroq ijtimoiy-iqtisodiy ta'sirini baholash imkoniyatlari to'liq ishga solinmayapti. 2019–2024-yillar davomida sanoat investitsiya loyihalarining taxminan 62 foizi kompleks ekologik baholashdan o'tgan.

Shuningdek, loyihalarni monitoring qilish va o'rta muddatli baholash tizimini rivojlantirish zarur. 2022-yilda o'tkazilgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra, tasdiqlangan investitsiya loyihalarining 43 foizida amalga oshirish muddatlari va byudjet parametrlaridan sezilarli og'ishlar kuzatilgan, bu esa dastlabki baholash bosqichini yanada kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi.

1 Muallif ishlanmasi



XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi tahlil natijalari investitsiya loyihalarini kompleks ekspertiza qilish va baholash tizimini yanada takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi. Mazkur jarayonning samaradorligini oshirish investitsiya muhitining sifatini yaxshilash hamda xorijiy investorlar ishonchini mustahkamlashda muhim omil hisoblanadi.

Aniqlangan holatlar quyidagi asosiy yo'nalishlar bilan bog'liq: birinchidan, metodologik bazani yanada rivojlantirish ehtiyoji; ikkinchidan, malakali ekspert kadrlar salohiyatini kengaytirish zarurati; uchinchidan, axborot-tahliliy infratuzilmani mustahkamlash; to'rtinchidan, ekspertiza natijalarini monitoring qilish va baholash mexanizmlarini takomillashtirish.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi amaliy takliflar ishlab chiqildi:

1. Yagona milliy metodologiyani shakllantirish. Xalqaro andozalar, jumladan UNIDO, Jahon banki va Asian Development Bank metodologiyalari asosida O'zbekiston sharoitiga moslashtirilgan yagona milliy baholash standartini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Bu barcha tegishli tashkilotlarda yagona mezon va yondashuvlarni qo'llash imkonini beradi.

2. Ekspertlar malakasini oshirish. Investitsiya loyihalarini baholash sohasida sertifikatlash tizimini rivojlantirish va mutaxassislarni xalqaro standartlar — FIDIC, Project Management Institute, CFA Institute — bo'yicha malaka oshirish kurslariga jalb etish tavsiya etiladi. 2025–2027-yillar davomida kamida 800 nafar sertifikatlangan ekspert tayyorlash maqsadga muvofiq.

3. Axborot platformasini yaratish. Investitsiya loyihalarini baholash uchun zarur bo'lgan bozor, sanoat va raqobat ma'lumotlarini birlashtiruvchi ochiq raqamli platformaning yaratish lozim. Bu loyiha ekspertlarining ishini yengillashtirib, baholashning aniqligi va shaffofligini oshiradi.

4. Xavf-xatarlarni baholash usullarini rivojlantirish. Yirik (10 mln AQSh dollaridan yuqori) investitsiya loyihalari uchun Monte-Karlo simulyatsiyasi va sezuvchanlik tahlilini kengroq qo'llash tavsiya etiladi. Bu noaniqliklarni chuqurroq baholash va risklarni oldindan aniqlash imkonini beradi.

5. Ekologik va ijtimoiy ekspertizani kuchaytirish. Sanoat va infratuzilma loyihalarini baholashda ekologik va ijtimoiy ta'sirni kompleks tarzda hisobga olish, shuningdek, mustaqil ekspertlarni jalb etish muhim hisoblanadi. Bu loyihalarning uzoq muddatli barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

6. Monitoring va keyingi baholash tizimini rivojlantirish. Yirik investitsiya loyihalari uchun 1 yillik, 3 yillik va 5 yillik monitoring baholash tizimini joriy etish hamda natijalarni ochiq e'lon qilish maqsadga muvofiq. Bu dastlabki ekspertiza sifatini oshirishda muhim teskari aloqa mexanizmi vazifasini bajaradi.

Investitsiya loyihalarini kompleks ekspertiza qilish va baholash tizimini rivojlantirish O'zbekiston iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda muhim strategik ahamiyatga ega. Taklif etilgan chora-tadbirlar amalga oshirilishi natijasida investitsiya jarayonining sifati va shaffofligi sezilarli darajada yaxshilanadi hamda mamlakatning investitsiya jozibadorligi yanada ortadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- Hoshimov J.R. Milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni rivojlantirish yo'nalishlari. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. — T.: TMI, 2022. — 14 b.
- Toshmatov M., Ismoilov B. Investitsiya loyihalarining iqtisodiy samaradorligini baholashda xavf-xatar omillarini hisobga olish metodologiyasi // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. — T., 2023. — № 4. — B. 112–127.
- Abdullayeva Sh.A. Kichik va o'rta biznesda investitsiya loyihalarini moliyalashtirish va ekspertiza qilish muammolari. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. — T.: TDIU, 2023. — 160 b.
- Yusupov N.K. Davlat investitsiya loyihalarini baholash tizimini takomillashtirish: raqamlashtirish imkoniyatlari // "O'zbekiston iqtisodiyoti" jurnali. — T., 2024. — № 2. — B. 45–62.
- Razzaqov A. Maxsus iqtisodiy zonalarda investitsiyalarni baholashning zaif tomonlari va ularni bartaraf etish yo'llari // "Moliya va iqtisodiyot" ilmiy-amaliy jurnali. — T., 2022. — № 3. — B. 78–91.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
